

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
on the theme " *Architecture is the Abode of Time* "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University

SAMARQANDDAGI XO'JA SAFOI VALIY MEMORIAL-DINIY MAJMUASINING TA'MIRLANISH TARIXI VA USLUBLARI

SamDAQU arxitektura kafedrası o'qituvchisi.

Akmal Rayimkulov Axmatovich


Annotasiya: Ushbu maqolada Samarqanddagi Xo'ja Safoi Valiy majmuasining shakllanishi, uning me'morchiligi, ta'mirlanish tarixi, usullari va uni hozirgi holati to'g'risida so'z boradi.


Kalit so'zlar: Xo'ja Safoi Valiy majmuasi, ziyoratgoh, xonaqoh, masjid, minora, ta'mirlash, konservasiya.

Hazrat Bobo hoji Safoning mazori Samarqand shahar tashqarisida, janubi-sharqiy burchagida, Qalandarxona takiyasi deb ataladigan mahallasida joylashgan [3]. Samarqand shahridagi kechki feodal davr me'moriy yodgorliklar bugungi kunga qadar qisman saqlanib qolingani. Ularning aksariyati dastlabki holatiga ko'ra, bir muncha o'zgargan va ta'mirlanib kelingan[5]. O'sha davr tarixiy va siyosiy ahvoli, Samarqand shaharsozligining madaniyatida ko'zga ko'rinadigan izlarini qoldiradi. O'zining uzoq davrli o'tmishida bir qancha yutuq va tanazzullarga uchragan.

XVIII asrda O'rta Osiyoning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi og'ir ahvolda edi[4]. L.I. Rempelning takidlashicha moddiy ahvol tangligi bir vaqtning o'zida ichki va tashqi iqtisodga hamda shaxar memorchiligiga xam o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan[1].

Xo'ja Safoi Valiy me'moriy yodgorligi XIV asr shahar g'arbiy devor tashqarisidagi Feruz darvozasi yaqinida joylashib, daha masjidlaridan biri hisoblangan. U 1990 yilga kelib Qalandar masjid rejasi kvadrat ko'rinishida bo'lib, sharq tomondan yog'och ustunli ayvoniga ega bo'lgan [5]. Qishki masjid xonaqohi saqlanmagan. Bir qismi turarjoyga moslashtirilib qayta ta'mirlangan. Qishki masjiddan faqat g'arbiy devor markazida mexrob qismi saqlanib qolingani. Shimoliy devor to'liq olib tashlangan. Masjid hududi turarjoylarni joylashtirish evaziga to'liq qayta rejalashtirilgan (1-rasm). Masjid ayvoni tomi tekis nishabli bo'lib uni yog'och shopillar va 6 ustunlar yordamida qad rostlagan. Rejasi to'g'rito'rtburchak shaklda bo'lib, g'arb, shimol va janubiy tomonlaridan devor tushgan. Masjidning old tomoniga 4 ustun joylashgan. Uning ro'parasida eni 10 metrga teng kattalikdagi sakkiz qirrali hovuz bo'lib, atroflarida baland bo'yli daraxtlar ko'karib turgan.





1-rasm. Masjidning rejasi va qirqimi. “UzNIPI restavrasiya” loyihaning bosh me’mori A.N. Galkin va arxeologi

X. Sultanovlar bo’yicha. 1989-1990 yillar

Shuningdek, yodgorlik to’g’risida ilmiy nashrlarda ham ba’zi qisqa ma’lumotlar keltirilgan. Bu A.K. Pisarchikning Samarqandning xalq me’morchiligi kitobida muallif “Samarqand masjidlari” bo’limida masjidlarning asosiy to’rt reja sxemalarini keltiradi, shulardan biri: qishki xonali (rejasi kvadrat yoki to’g’ri to’rtburchak) bir qatorli ayvon yoki ikki qatorli ayvoni bilan o’ralgan bu o’z o’rnida yozgi masjid funksiyasini bajarib kelib, ayvon xonaning faqat bir tomonidan joylashtirilgan[2]. Odatda ular xonaning sharqiy tomonidan joylashtirilgan. Bu Samarqandning katta bo’lmagan daha, mavze masjidlari qatorida boshqa hududlar uchun ham eng takomillashgan rejaviy tuzilma hisoblanadi. Aynan Qalandarxona masjidi rejasi shu asnoda shakllangan bo’lib, ayvoni sharq tomonga yo’nalgan.

XIX asr boshi XX asr Xo’ja Safoi Valiy me’moriy majmuasi Samarqand shahrining muhim ahamiyatga ega bo’lgan diniy-ommaviy yodgorlik hisoblanib, majmua deyarli to’liq saqlanib kelingan. U o’z tarkibiga XIX asr gumbazli xonaqoxiga ega masjid binosi, XX asrga tegishli ustunli yon ayvoni, dabdabali zinali, bir gumbazli, eshiklari yog’och naqshinkorli kirish darvozaxonasi, olti qirrali minora va ko’p yillik baland bo’yli chinorlarni o’z ichiga oladi[6]. Majmuaning qolgan obyektlari, ya’ni hovuz, hujralar va taxoratxona binolari hozirda saqlanib qolinmagan. Hududning janubiy tomoni eski qabrlar egallangan bo’lib unda taroshlangan-epigrafikaga oid husni xatlariga ega marmarli qabr toshlar shuningdek, pishiq g’ishtli sag’analar mavjud. Majmuaning shimoliy hududini ham XX asrlarga kelib qabrlar egallagan. Uning me’morchiligi atrof muhit bilan hamohang tarzda uyg’unlashib kelib, shaharning qiziqarli tarixiy-me’moriy shakllangan hududlaridan biri bo’lib kelgan.


Tabiiyki, tadqiqot mobaynida yodgorlikning qurilish davri to’g’risida hеч qanday ma’lumot topilmadi. Inshoatda ba’zi bir me’moriy bo’linmalar, ya’ni to’g’ri to’rtburchak oynalar, boshqa qismining shakllari kabi elementlardan–foydalanish so’nggi arxitekturaviy uslublarning qo’llanilganligidan darak berib turibdi.

1989-1990 yillarda “UzNIPI restavrasiya” tashkiloti bosh me’mor A.N. Galkin va loyiha qatnashchilari guruhi bilan olib borilgan tadqiqot ishlarida aniqlanishicha Xo’ja Safoi Valiy masjidining kompozision rejaviy-yechimi sharqdan g’arbga tomon yo’nalgan, to’g’ri to’rtburchak shaklida bo’lib, qishki masjidga sharq tomondan ikki qatorli olti ustunga tayangan ayvon birlashib turgan. Uning tom yopmasi tekis qoplamasiga ega. Masjidga kirish ayvonning g’arbiy devori ikkita eshiklardan iborat. Kirish eshiklari ustida derazalar va devor markazida mexrob joylashgan. Yodgorlikning ayanchli ahvolda ekanligiga qaramasdan bu devorlarda qoplama izlari saqlanib qolgan. Ayvonning tayanch devorlar sirtlarida ananaviy ganch qoplamasi saqlangan. Ayvon shiftini ikki qator ustunlar ko’tarib, shiftda oltiga teng bo’lgan kvadrat shakllarni ya’ni “kabza shift”ni hosil qilgan. Ustunlar yog’ochli o’ziga xos “kuzagi” uslubidagi ananaviy o’yma naqshlar bilan jilovlangan [5]. Masjidning g’arbiy devor mexrobi ganch-muqarnasli qilib ishlangan.

Shu davrlarda, masjidning texnik holati qoniqarsiz ahvolda bo’lgan. Qishki masjidning orayopmasi to’liq yoqotilgan, faqat baland ayvon va uning sharqiy devori, shu bilan birga masjidning janubi va g’arbiy konstruktiv qismlari saqlangan. Qishki masjid qisman turarjoy uslubida qayta rejalashtirilgan.

Ta’mirlash loyihasida ko’rilgan masalalarga to’xtalsak yuqorida o’rganilgan bibliografik, so’rovnoma va arxiologik ma’lumotlarga asoslanib yodgorlikning dastlabki holati aniqlanadi va me’mor-ta’mirshunoslar oldiga bir necha vazifalar qo’yiladi. Ta’mirlashning me’moriy-konstruktiv yechimlarini ishlab chiqish, eng muhimi hozirga qadar saqlangan qismlarni boricha saqlash, bunda mexrobning ganch qoplamalari muhim omillardan biri sanaladi. Keyingi o’rinda davriy qurilish va ta’mirlash bosqichlarini qo’shimcha qismlarini farqlash bunda rejalashtirilmagan qurilishlarni aniqlashdan iborat. Bularning barchasi yodgorlikning tarixiy me’moriy qiymatini ochib berishda muhim vazifani bajaradi.

Majmuadagi masjid rejasi 11.5 x 16.2 metrga teng bo’lib XIX asrning bir gumbazli xonaqoh-zaliga va XX asrning olti ustunli, to’sin-vassali tekis yopmali ayvonidan iborat(2-3 rasmlar). Xonaqoh mehrobi chuqur ravoqli bo’linma tarzida ishlanganligidan va masjidning g’arbiy devori qalinligi 2,5 metrga teng. Bu esa o’z navbatida masjidning ancha avvalroq qurilganligi haqidagi taxminlarga kelish mumkun. Xonaqoh-ichki tuzilishi mo’jaz ko’rinishga ega. Yuqori qismi murakkab o’zaro kesishuvchi ravoqlar va burchaklardagi qalqonsimon bag’allardan tashkil topgan. Masjidning asosiy sharqiy tarzi ravoqli bo’rtmali bo’linmalar bilan ajratilgan va markazida peshtoqli kirish qismidan iboratdir.



2-rasm. Xo'ja Safoi Vali masjidi bosh reja va fasadi. 1950 yil Kucherskiy, Aleksandrovlar chizmasi (Inventar karta raqami 2081, Neg. 12567/77-8).




3-rasm. Xo'ja Safoi Vali masjidi sharqiy va g'arbiy ko'rinishlari (2022 yil muallif fotolari).

Ayvon ustun va to'sinlari har xil bo'lib, uning interyeri shiftida islmiy tarzidagi naqshlar saqlanib qolgan. Ayvon qosh qismi g'ishtli va unda kvadrat shakldagi sirli koshinlar bilan ishlab chiqilgan.

Minora Samarqand shahridagi XX asrga taluqli kam saqlangan minoralaridan biri hisoblanadi. Olti qirrali shakldagi baland bo'lmagan minoradir. Ichida spiralsimon shakldagi zinalar minoraning yorug'lik maydoniga olib chiqadi. Uning devori tanasi sirti ravoqli-o'yiqli chuqurliklari va kitobalari bilan ajratilgan. Kursidan tanaga o'tish qismida qayta ishlov berilgan bo'rtma g'isht terimi bilan ajratilgan. Yorug'lik ravoqlari asosini muqarnasli belbog' bilan ishlab chiqilgan.

Masjidning janubi-sharqiy burchagidan chamas 3 metrilar uzoqlikda joylashgan minora majmuani qolgan qismlari bilan chambarchas bog'lanishi bilan birga, u majmuani vertikal me'moriy kompozitsiyasini ham yaratib kelmoqda(4-rasm).



4-rasm. Xo'ja Safoi Vali masjid rejasining hozirgi holati.

Shuningdek, 1954 yil Borovin, Kucherskiy va Aleksandrovichlar tomonidan olib borilgan dala tadqiqotlari, fotofiksasiya natijalariga ko'ra 1880-1881 (1288) yillarga tegishli bo'lgan me'moriy yodgorliklar xaritasiga asosan Xo'ja Safoi Vali (Qalandarxona) masjidi Samarqand shahri Xiva ko'chasi 7 uy manzili bilan ro'yxatga olingan. Shu bilan birga yodgorlik pishiq g'ishtdan qurilib, ayvonli gumbazli kompozitsiyaga ega bo'lgan. Ustunlari yog'ochli, muqarnassiz va tag kursisiga ega. Mexrob murakkab muqarnasli qilib ishlangan. Ayvon shifti tasviriy san'ati yaxshi saqlanganligi borasida ma'lumotlar ro'yxatga olish kartasida keltirilgan.

Keyinchalik, 1992 yilning 12 martida Xo'ja Safoi Valiy masjidini saqlash bo'limi tomonidan masjid imomi Sharipovga yodgorlikni asrash bo'yicha talablar qo'yiladi. Unga ko'ra vazifasidan kelib chiqib foydalanish, me'moriy yodgorliklarni saqlash bo'limi kelishuviz unda hyech qanday ta'mirlash va tiklash ishlari olib borilmasligi, uning atrofida ishlab chiqarish obyektlari va yodgorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar (yadroviy bug'larni tashkil etadigan, tebranuvchi, monoton zarbalarni hosil qiluvchi jihozlarni va h.k.)ni joylashtirmaslik talab qilinadi.

Hozirgi paytda majmuaning hududi va inshootlari to'liq ro'yxatga olingan. Ammo, XX asr boshlariga qadar bu maskanda mavjud 1 qavatli binolarda 5-umumta'lim maktabi, sport internati va 24-aloqa bo'limi, sobiq hujralar o'rnida 12-sonli kutubxona va mahalla markazlari faoliyat ko'rsatib kelingan [7]. Bu esa o'z navbatida asosan juma va Hayit ayomlarida yig'iladigan nomozxonlar uchun ba'zi noqulayliklarni keltirib chiqarishi, mahalliy vakillarning murojatlaridan kelib chiqib zamonaviy inshootlaridan voz kechish va majmua atrofni kengaytirish, hovli bog'larni obodonlashtirish, tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun mo'tadil sharoitni ta'minlashga erishilgan. Bunday ulug'vor ishlarni bajarishga me'moriy yodgorliklarni asrash inspeksiyasi boshlig'i M. Naberava, masjid imomlari va mahalliy nuroniy – oqsqaqollar tashabbus ko'rsatishgan.

Hamda, 2009-2012 yillarga kelib Xo'ja Safoi Valiy jamoasi tomonidan berilgan buyurtmaga asosan kompleksning shimoliy qismidan yangi kirish darvozasi loyihasi I. Nurullayev va X. G'afforovlar tomonidan majmuaga hamohang tarzda ishlab chiqiladi. Kirish qismi peshtoq-gumbazli kompozitsiyali bo'lib, u Panjiket ko'chasi tomon qarab turibdi. Peshtoq tarzi rang barang koshinlar, yog'och o'ymakorli eshik va derazalar bilan bezatilgan. Kirish darvozasi rejasi ikki yon tomoni cho'zilib unda yordamchi va xo'jalik xonalari joylashtirilgan. Ushbu majmua, Samarqand shaharida mavjud bo'lgan tarixiy obidalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu memorial majmua muqaddas ziyoratgoh sanalib uning ixlosmandlari barcha musulmon davlatlardan kelib ziyorat amallarini bajarib ketishmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joyizki, majmuaning muhofaza hududini saqlash, bunda majmua atrofidagi yangi va zamonaviy uslubdagi baland turarjoy va jamoat binolaridan xalos bo'lish, ilmiy tadqiqotlarga asoslanib hududni barcha arxeologik topilmalarini aniqlash, (masjidning shimoliy qismidagi hujralar, tahoratxona va hovuz o'rinlari) ularni tiklash yoki konservatsiya holatida kelajak avlodga yetkazish muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Asosiy masalalardan yana biri esa majmua sakkiz qirrali hovuzini tiklash, uning atrofidagi qadimgi chinorlarni qurib qolishini oldini olish uchun iriigasiya tizimlarini rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini tartibga solish, kompleksning asl holatini borligicha saqlab qolish masalalarini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Zero bu memorial majmuaga keluvchi ichki va tashqi sayyohlarning oqimini yanada ko'payishiiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Pugachenkova G.A. Rempel L.I. Istoriya iskustv Uzbekistana. "Iskustvo" Moskva, 1965. s. 372.
2. Pisarchik A.K. Narodnaya arxitektura Samarkanda. Dushanbe. 1975. s. 50.
3. Abu Toxir Xo'ja. "Samariya" asari V.L. Vyatkin tarjimasi SKSO. VI nashr. Samarqand, 1898, 52 b.
4. Chexovich O.D. K istorii Uzbekistana v XVIII v trudy IVAN (Institut Vostokovedeniya Rossiyskoy Akademii Nauk) tom III Tashkent, 1964. s. 72-73.
5. S 62-11/G-16. Mechet Eski kalandarxona Eskiznyy proyekt restavratsii s materialami issledovaniy pered nachalom restavratsionnykh rabot KNIGA – II. Arxiv Glav NPU. Tashkent 1989 g. s. 2-53.
6. 12567/77-8. Pasport mecheti Xodja Safoi Vali. Materialy proyekta «Svod pamyatnikov materialnoy kul'tury Uzbekistana» v 1986-1992. Arxiv otdela «Arxitektury» Instituta Iskusstvoznaniya AN Respubliki Uzbekistana. Tashkent, 1950.
7. O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyat tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash va ulardan foydalanish davlat nazoratiga. Siyob tumani "Xo'ja Safoi Vali" jome masjidi a'zolari tomonidan Ariza № 11/27.11.2003.
8. Abbasova-Yusupova, M. A. (2023). Ҳазіра Memorial Complexes in Mawarannahr: Evolution and Architectural Features. In *Memory and Commemoration across Central Asia* (pp. 222-241). Brill.